
Qo'shtepa tumanidagi 1-sonli kasb-hunar maktabida 2 ta sun'iy qoplamali kichik stadion qurilmoqda

Davlatimiz rahbarining 25 oktyabr kuni imzolagan qarori bilan, 2022 yil iyul-sentyabr oylarida o'tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib deb topilmagan 364 ta loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha 335 milliard so'm mablag' ajratilgan edi.

Xususan, Qo'shtepa tumanidagi 1-sonli kasb-hunar maktabiga ham 2 ta sun'iy qoplamali kichik stadion qurish uchun 760 million 425102 so'm mablag' yo'naltirilgan.

Ayni kunlarda ta'lim maskanida loyiha doirasida olib borilayotgan qurilish-bunyodkorlik ishlari yakunlanish arafasida.





2023-02-13 11:39:02